

"INTELLEKTUAL MULK" TUSHUNCHASI VA MUALLIFLIK HUQUQI*Safarova Xolida Baxrom qizi**TDYU huzuridagi M.S.Vosiqova nomidagi
akademik litseyning 1.1-guruhan talabasi*

Inson dunyoga kelgandan so'ng olamni bilishga, tushunishga, idrok qilishga harakat qiladi. Atrof-muhitni ongda aynan aks ettirish, fikrlash, o'qish-o'rganish, dunyoni bilish va ijtimoiy tajribani qabul qilish qobiliyati shakllanadi. Inson yaratadigan ijodiy aqliy faoliyat mahsuli intellektual mulk hisoblanadi. Bugungi kunda yoshlar mакtabda o'qib yurgan paytalaridayoq asarlar, she'riy to'plamlar chop etmoqda, turli xil ixtiolar, foydali modellar yaratmoqda. Bu huquqlarimizdan foydalanish O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlari bilan kafolatlanadi. Ushbu maqolada ham intellektual mulk tushunchasiga ta'rif beriladi va intellektual mulk obyektlari, mualliflik huquqi bilan bo'gлиq munosabatlar, uning amal qilish muddati, muallif huquqlarining xalqaro muhofazasi haqida mulohazalar yuritiladi.

Kalit so'zlar: intellektual mulk, mualliflik huquqi, mualliflik shartnomasi, intellektual mulk obyektlari, huquq manbalari.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilanganidek, ilmiy, texnik va badiiy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanadi. Intellektual mulk qonun bilan muhofaza qilinadi. Intellektual mulk har bir mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishiga ijobiy ta'sir etadi. O'zbekistonda ham intellektual mulkni rivojlantirish, uni huquqiy himoya qilish sohasida bir qator ishlar amalgalashirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi 1991-yil 25-dekabrda Jahon intellektual mulk tashkilotiga a'zo bo'ldi, 1993-yildan Sanoat mulkini muhofaza qilish Parij konvensiyasiga qo'shildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-fevraldagagi "Intellektual mulk sohasida davlat boshqaruvini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2019-yil 1-iyuldagagi "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2022-yil 26-apreldagi "Intellektual mulk sohasini yanada rivojlanishiga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari shular jumlasidandir. Bugun fuqarolik huquqi tarkibida ilmiy-texnika taraqqiyoti, inson ijodiy faoliyati va uning mahsullaridan foydalanish masalalarini tartibga soluvchi intellektual mulk huquqi sohasida jadal sur'atlar bilan rivojlanmoqda.

Intellektual mulk obyektlari fuqarolik huquqining o'ziga xos obyektidir. Ushbu intellektual mulk obyektlari ro'yxati Fuqarolik kodeksining 1031-moddasida berilgan. Intellektual obyektni yaratgan muallif shaxsiy nomulkiy va mulkiy huquqlarga ega bo'ladi. Shaxsiy nomulkiy huquqlar muallifga uning mulkiy huquqlaridan qat'i nazar tegishli bo'ladi va uning intellektual faoliyat natijalariga

bo'lgan mulkiy huquqlari boshqa shaxsga o'tgan taqdirda, uning nomulkiy huquqlari o'zida saqlanib qoladi. Misol uchun, muallif yaratgan she'rlar to'plami muallifga tegishli bo'ladi. Agar she'riy to'plam boshqa shaxsga o'tgan taqdirda (sotilganda) muallifning nomulkiy huquqlari saqlanib qoladi, lekin she'riy to'plamdan olingan daromadga da'vo qilolmaydi. Intellektual mulk obyektlariga intellektual faoliyat natijalari bo'lgan fan, adabiyot va san'at asarlari, ijrolar, fonogrammalar, ixtiolar, foydali modellar kabilar kiradi. Intellektual mulk obyektlariga nisbatan shaxsiy nomulkiy huquqlar muddatsiz amal qiladi. Intellektual mulk sohasini rivojlantirish mamlakatimizning jahon integratsiyasidagi asosiy omili ekanidan kelib chiqib, intellektual mulk obyektlarini muhofaza qilish tizimini takomillashtirish maqsadida Fuqarolik kodeksi, 2022-2026-yillarda O'zbekiston Respublikasida intellektual mulk sohasini rivojlantirish strategiyasi, "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi qonun, "Patent vakillari to'g'risida"gi nizom kabi huquqiy hujjatlar qabul qilingan.

Mualliflik huquqi. Mualliflik huquqi shaxsiy nomulkiy huquq hisoblanadi va ijodiy mehnat bilan intellektual faoliyat natijasini yaratgan shaxsgagina tegishli bo'ladi. Mualliflik huquqi boshqa shaxsga o'tkazilmaydi va berilmaydi. Agar ikki yoki undan ortiq shaxsning birgalikdagi ijodiy mehnati bilan biror-bir narsa yaratilgan bo'lsa, ular hammuallif hisoblanadi. Mualliflik huquqi - fan, adabiyot va san'at asarlarini yaratish va ulardan foydalanishda vujudga keladigan munosabatlarni tartibga soladigan fuqarolik huquqi me'yordi majmuasi. Mualliflik huquqi ijodiy faoliyat natijasi bo'lmish fan, adabiyot va san'at asarlariga nisbatan, ularning maqsadi va qadr-qimmati, shuningdek, ifodalanish usulidan qat'i nazar, tatbiq etiladi. Asar kimning ijodiy mehnati bilan yaratilgan bo'lsa, ana shu fuqaro asar muallifi deb e'tirof etiladi. Ayrim hollarda mualliflik huquqlari buzilishiga ham duch kelish mumkin. Bularga muallif nomi ko'rsatilmasdan nusxa olish (kitoblar, maqolalardan), asarni tarqatish, asarlarni konsert zallari, teatr sahnasida omma uchun namoyish qilish, radio, televide niye orqali efirga uzatish, asarni boshqa tillarga tarjima qilish kabilar kiradi. Inson tafakkuri natijasi bo'lgan mulfk obyektiga nisbatan mualliflik huquqini o'zlashtirib olish, hammualliflikka majburlash, tafakkur mulfk obyektlari to'g'risidagi ma'lumotlarni ular rasman ro'yxatdan o'tgazilgunga qadar muallifning rozilgisiz oshkor etish jinoiy javobgarlikka asos bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 149-moddasiga ko'ra mualliflik yoki ixtirochilik huquqlarini buzish bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh baravaridan yetmish besh baravarigacha miqdorda jarima yoki besh yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish yoxud uch yuz oltmis soatgacha majburiy jamoat ishlari yoki uch yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

Mualliflik huquqi manbalari: O'zbekiston Respublikasida ilmiy yoki badiiy ijod sohasidagi munosabatlar Konstitutsiya, Fuqarolik kodeksi, "Mualliflik huquqi va

turdosh huquqlar to'g'risida" (1996-yil 30-avgust), "Mulkchilik to'g'risida" (1992-yil), "Elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturlar va ma'lumotlar bazalarining huquqiy himoyasi to'g'risida"gi (1995-yil) qonunlar, Soliq kodeksi (1997-yil) bilan tartibga solinadi.

Mualliflik huquqining amal qilish muddati: O'zbekiston Respublikasining "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi qonunining 35-moddasiga muvofiq mualliflik huquqining amal qilish muddati muallifning butun hayoti davomida va uning vafotidan keyin yetmish yil davomida amal qiladi. Hammualliflikda yaratilgan asarga bo'lgan mualliflik huquqi hammualliflarning butun hayoti davomida va hammualliflar orasida eng uzoq umr ko'rgan oxirgi shaxs vafot etganidan keyin yetmish yil davomida amal qiladi.

Mualliflik shartnomasi - tayyor asar yoki muallif belgilangan muddatda yaratishni o'z zimmasiga olgan asardan foydalanish uchun muallif (hammualliflar) va nashriyot o'rtasida tuzilgan shartnomasi.

Mualliflik huquqlarining xalqaro muhofazasi: O'zbekiston Respublikasida intellektual mulk sohasidagi munosabatlar xalqaro huquq me'yorlariga asoslangan holda hamda quyidagi hujjatlardan kelib chiqib tartibga solinadi: 1. Adabiy va badiiy asarlarni muhofaza qilish to'g'risidagi Bern Konvensiyasi bitimlari (24.07.1971-yil); 2. Mualliflik huquqi to'g'risida Butunjahon konvensiyasi bitimlari (1952-yil); 3. MDH doirasida tuzilgan mualliflik va turdosh huquqlarni himoya qilish haqidagi bitimlar (10.02.1995-yil).

Xulosa. Intellektual mulk zamонавијајамиятда иқтисодијајривојланиш ва маданиј тараqqијотнинг муhim omili hisobланади. У mualliflar, ixtirochilar va ijodkorlarning asarlarini huquqiy himoya qilish orqali yangi g'oyalar va texnologiyalarning yaratilishini rag'batлantiradi. Mualliflik huquqi intellektual mulkning muhim qismi bo'lib, adabiy, san'at asarlari va ilmiy tadqiqotlarni himoya qiladi. Ushbu huquqni himoya qilish, ijodiy ishlар bilan shug'ullanadigam shaxslar uchun iqtisodiy manfaat yaratish bilan birga, jamiyatda innovatsiya va bilim almashinuvি jarayonini ham tezlashtiradi. Shu sababli, intellektual mulk huquqlarining samarali amalga oshirilishi va qonuniy asoslarga rioya etilishi ijodiy faoliyatning rivoji vaadolatli iqtisodiy muvozanatning ta'minlanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'rta ta'lim maktablarining 10-sinfı va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari o'quvchilari uchun darslik: Davlat va huquq asoslari. 1-nashri, Toshkent "Yangiyo'l Poligraf Servis" 2017.
2. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 10-sinfı uchun darslik: Davlat va huquq asoslari. Yangi nashr, Toshkent 2023.
3. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi.
4. O'zbekiston Respublikasining "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi qonuni.